

CHIGIT EKISH VA CHILPISHDA TUPROQ IQLIM SHAROITI (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA)

ПОЧВЕННО-КЛИМАТИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ПРИ ПОСЕВЕ И ВЫДАВЕ
СЕМЕНА (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)
SOIL CLIMATE CONDITIONS WHEN PLANTING AND THROWING
SEED (FOR AN EXAMPLE OF FERGANA PROVINCE)

Tursunova Sayyoraxon Yorqinjon qizi

Farg'ona politexnika instituti

abubakireldor01@gmail.com +998907811113

Annotatsiya

Urug'larni ekish agronomiyaning asosiy bosqichi bo'lib, u tuproq va iqlim sharoitlarini sinchiklab ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu omillar o'simliklarning unib chiqishi, o'sishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir qiladi. Ushbu maqolada biz urug'larni ekish uchun joy tanlashda e'tiborga olish kerak bo'lgan asosiy jihatlarni ushbu maqolada ko'rib chiqamiz. Tuproq unumdorligi organik moddalar va ozuqa moddalarining tarkibiga bog'liq. Urug'larni ekishdan oldin, o'g'itga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun tuproq testini o'tkazish tavsiya etiladi. Kompost yoki mineral o'g'itlarni qo'llash hosilni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Аннотация

Посадка семян – ключевой этап в агрономии, требующий тщательного учета почвенных и климатических условий. Эти факторы существенно влияют на всхожесть, рост и развитие растений. В этой статье мы рассмотрим основные моменты, которые следует учитывать при выборе места для посадки семян. Плодородие почвы зависит от содержания органических веществ и питательных веществ. Перед посадкой семян рекомендуется провести анализ почвы, чтобы определить потребность в удобрениях. Использование компоста или минеральных удобрений позволяет значительно повысить урожайность.

Abstract

Planting seeds is a key step in agronomy that requires careful consideration of soil and climate conditions. These factors significantly affect the germination, growth and development of plants. In this article, we will look at the main points to consider when choosing a place to plant seeds. Soil fertility depends on the content of organic matter and nutrients. Before planting seeds, it is recommended to conduct a soil test to determine the need for fertilizer. The use of compost or mineral fertilizers can significantly increase the yield.

Kalit so'zlar: Iqlim, ob-havo, tuproq, mineral, yer, defoliatsiya, g'o'za, chigit, agrokimyoviy xususiyat.

Ключевые слова: Климат, погода, почва, минералы, земля, дефолиация, хлопок, семена, агрохимические свойства.

Key words: Climate, weather, soil, mineral, land, defoliation, cotton, seed, agrochemical properties.

Kirish. Fargʻona viloyati Fargʻona vodiysining shimoliy va gʻarbiy qismida joylashgan boʻlib, maydoni 7,1 ming km kvadratga teng. Viloyat xududi Qoʻqon va Fargʻona agroiklim tumanlariga boʻlinib, Qoʻqon agroiklim tumanining shimoliy chegarasi Sirdaryo boʻylab, gʻarbi esa Qayraqqum suv omborigacha boradi. Janubiy chegarasi katta Fargʻona kanali boʻylab, sharqi Andijon viloyati bilan chegaralangan. Samarali havo haroratining yillik yigʻindisi oʻrtacha 2500-2800 °C atrofida. Ob-havo sharoiti 43-45 issiqdan 15-18 °C sovuqqacha boradi.

Fargʻona viloyatning barcha tuproqlari 511 ming gektar boʻlib, shundan 55,6%, yaʼni 284 ming gektari xaydaladigan yerlardir. Boʻz tuproqlar mintaqasining sugʻoriladigan maydonlarida 44,2 ming gektar asl boʻz tuproqlar boʻlib, uning 43% xaydov yerlaridir. Och tusli boʻz tuproqlar 61 ming gektarni tashkil etib undan 33% xaydashga moyil. Boʻz-oʻtloqi tuproqlar 10 ming gektar, shundan 70% xaydaladi. Oʻtloqi soz tuproqlar 14,5 ming gektar, buning xam 70% xaydaladi. Saxro mintaqasining asosiy tuprogʻi oʻtloqi-soz tuproq boʻlib 237,5 ming gektarni tashkil qiladi. Uning 72% xaydaladigan yerlardir.

Viloyat xududining koʻpchilik qismi sugʻoriladigan yerlar, qolgan qismi esa oʻzlashtirilayotgan qumlarni tashkil etadi. Fargʻona viloyatida sizob suvining chuqurligi xam har xil boʻlib, u Quvasoy va Margʻilon konusida chiqish qismining katta Fargʻona kanalining uzunligi boʻyicha relʼefga qarab 1.0-3,0 m. chuqurlikda joylashgan. Minerallanish darajasi quruq qoldiq boʻyicha 0,8 l/ga ni tashkil etadi. Konusdan pastki va markaziy qismlarida sizob suvlari yetarli miqdorda gorizontal oqimiga ega.

Viloyatning sugʻorilib dexqonchilik qilinib, kelayotgan maydonlari sizot suvining satxi boʻyicha, sizot suvi 1 metrgacha joylashgan maydon 1000 gektarni, 1-2 metr chuqurlikda joylashgan maydon 173000 gektarni, 2-3 metr chuqurlikda joylashgan maydon esa 55000 gektarni tashkil etadi.

Dala tuprogʻlarining bir yillik agrokimyoviy xususiyatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar 1-jadvalida keltirilgan boʻlib, 2020 yildagi tajriba tuprogʻining haydalma qatlamida (0- 30 sm) umumiy chirindi miqdori 1,147% ni, azot 0,111 %, fosfor 0,168% ni tashkil qilgan holda harakatchan N_{03} -2,464; P_{20s} -38,45 va K_{20} -175 mg/kg ekanligi, 30-50 sm tuprogʻining qatlamida umumiy chirindi miqdori 1,088% ni, azot 0,144%, fosfor 0,143% ni tashkil qilgan holda xarakatchan N_{03} -2,321; R_{205} -29,9 va K_{20} -155 mg/kg ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, tadqiqot oʻtkazilishi rejalashtirilgan tuproq sharoitlari

o'rganilib chiqildi va tuproqlarining ozuqa elementlari bilan taminlanganlik darajasi yetarli darajada emasligi namayon bo'ldi.

2020 yilda ob-havo sharoiti o'rtacha ko'p yilliklarga yaqin bo'lib, iqlimda keskin o'zgarishlar kuzatilmadi. Bahor oylarida havo harorati biroz ko'tarilib, bu may oyida ham kuzatildi.

1-jadval

Tuproqning dastlabki agrokimyoviy tavsifi (Farg'ona viloyati, 2020 yil)

Nuqtalar	Tuproq qatlamlari (sm)	Umumiy formalari, %			Harakatchan formalari, mg/kg		
		chirindi	N	R ₂ O ₅	NO ₃	R ₂ O ₅	K
1 -nuqta	0-30	1,201	0,112	0,18	2,60	46,25	200
	30-50	1,254	0,330	0,160	2,475	30,0	175
2-nuqta	0-30	1,068	0,097	0,150	1,00	39,0	175
	30-50	1,228	0,128	0,124	1,70	32,0	150
3-nuqta	0-30	1,014	0,097	0,170	0,60	30,0	150
	30-50	0,934	0,080	0,136	1,91	25,0	150
4-nuqta	0-30	1,148	0,117	0,170	1,60	39,0	175
	30-50	0,987	0,086	0,136	0,80	27,5	150
5-nuqta	0-30	1,308	0,133	0,170	6,52	38,0	175
	30-50	1,041	0,097	0,160	4,72	35,0	150
Jami	0-30	5,739	0,556	0,84	12,32	192,25	875
	30-50	5,444	0,721	0,716	11,605	149,5	775
O'rtacha	0-30	1,1478	0,1112	0,168	2,464	38,45	175
	30-50	1,0888	0,1442	0,143	2,321	29,9	155

ko'p yillikka nisbatan biroz kamayib, 11,9 mm ga yetganligi kuzatildi. Bu yilgi sharoitda yoz faslining iyun va iyul oylarida havo harorati o'rtacha ko'p yillikdan biroz yuqori bo'lib, oylarga mos ravishda 25,2-29,7 °C ni tashkil etdi. Iyun oyida yog'ingarchilik o'rtacha 38,5 mm ni tashkil etib, ko'p yillikka nisbatan biroz ko'payganligi qayd etildi. Iyul oyida esa yog'ingarchilik kunlari kamroq kuzatilib, 0,9 mm ni tashkil etdi. Bu yilgi sharoitda paxta xom-ashyosining pishib yetilish davri, ya'ni avgust, sentabr oylarida o'rtacha havo harorati o'rtacha ko'p yillikdan biroz yuqori.

Bu yilgi sharoitda paxta xom-ashyosining pishib yetilish davri, ya'ni avgust, sentabr oylarida o'rtacha havo harorati o'rtacha ko'p yillikdan biroz yuqori bo'lib, oylarga mos ravishda 27,0-21,2°C ni tashkil etdi. Avgust oyida yog'ingarchilik 0,5

mmni tashkil etib, sentabr oyida yog‘ingarchilik kunlar kuzatilmadi. Bu esa yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, tabiiy iqlim sharoiti defoliatsiya ishlarini o‘tkazish uchun juda qulay bo‘lganligi bilan izoxlanadi.

Keltirilgan jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, defoliatsiya davrida tabiiy iqlim sharoitlari defoliatsiya uchun maqbul bo‘ldi.

Umuman olganda, tadqiqot olib borilgan 2020-yilda g‘o‘zaning o‘sib, rivojlanishi uchun havoning harorati va samarali harorat yig‘indisi qulay bo‘lib, g‘o‘zani o‘sishi-rivojlanishi uchun maqbul sharoit yaratildi.

2020 yilda barcha g‘o‘za navlarida 1-2-3 muddatlarda chigit ekish amalga oshirganda (10.04.; 15.04; 20.04.) 5 sentyabr kuni defoliatsiya o‘tkazilgan bo‘lsa, eng yuqori havo harorati 30,4°C ni, eng pasti 13,9°C ni, o‘rtachasi 21,1 °C ni tashkil etdi. Havoning o‘rtacha namligi 54% ni, shamol tezligi esa 5,0 m/sek ga teng bo‘ldi.

Defoliatsiyadan so‘ng 12-kungacha bo‘lgan havo xaroratini eng yuqorisi 31,5°C, eng pasti 13,2°C, va o‘rtachasi 22,3°C ni tashkil etib, yog‘ingarchilik kuzatilmadi. Havoning o‘rtacha namligi 51,0% ni, shamol tezligi 5,0 m/sek ni tashkil etdi.

Chigit ekish muddati barcha g‘o‘za navlarida 25-30 aprelda amalga oshirilib defoliatsiya o‘tkazilgan fonimlarimizda 10 sentyabrga to‘g‘ri kelib, bu kuni eng yuqori havo harorati 32,4°C ni, eng pasti 15,8°C ni, o‘rtachasi 23,8°C ni tashkil etdi. Havoning o‘rtacha namligi 53% ni, shamol tezligi esa 4,0 m/sek ga teng bo‘ldi. Defoliatsiyadan so‘ng 12-kun oralig‘ida o‘tacha havo-harorati aytarli yuqori darajada o‘zgarmadi va ushbu davrdagi eng yuqori harorat 31,7°C ni, eng pasti 13,2°C ni, o‘rtachasi 22,5°C ni tashkil etdi.

Defoliatsiya davrida iqlim sharoiti, 2020 y.

(Farg‘ona agrometereologiya stansiyasi ma’lumoti)

2-jadval

<i>01.09</i>	<i>30.2</i>	<i>14</i>	<i>22.3</i>		<i>55</i>	<i>8</i>
<i>02.09</i>	<i>28.5</i>	<i>16</i>	<i>22.4</i>		<i>42</i>	<i>7</i>
<i>03.09</i>	<i>27.6</i>	<i>12</i>	<i>20.0</i>		<i>49</i>	<i>4</i>
<i>04.09</i>	<i>29.3</i>	<i>12</i>	<i>20.0</i>		<i>55</i>	<i>4</i>
<i>05.09</i>	<i>30.4</i>	<i>13</i>	<i>21.1</i>		<i>54</i>	<i>5</i>
<i>06.09</i>	<i>31.0</i>	<i>14</i>	<i>22.2</i>		<i>50</i>	<i>4</i>
<i>07.09</i>	<i>29.4</i>	<i>15</i>	<i>22.4</i>		<i>51</i>	<i>5</i>
<i>08.09</i>	<i>31.0</i>	<i>14</i>	<i>22.2</i>		<i>54</i>	<i>4</i>
<i>09.09</i>	<i>31.6</i>	<i>14</i>	<i>22.9</i>		<i>51</i>	<i>4</i>
<i>10.09</i>	<i>32.4</i>	<i>15</i>	<i>23.8</i>		<i>53</i>	<i>4</i>
<i>Jami I</i>						
<i>O‘rtac</i>	<i>32.4</i>	<i>12</i>	<i>21.9</i>	<i>-</i>	<i>51</i>	<i>5</i>
<i>11.09</i>	<i>31.5</i>	<i>17</i>	<i>24.5</i>		<i>55</i>	<i>6</i>
<i>12.09</i>	<i>30.6</i>	<i>16</i>	<i>23.9</i>		<i>48</i>	<i>10</i>
<i>13.09</i>	<i>27.8</i>	<i>17</i>	<i>22.3</i>	<i>0.0</i>	<i>47</i>	<i>10</i>
<i>14.09</i>	<i>25.7</i>	<i>14</i>	<i>19.2</i>		<i>58</i>	<i>3</i>

15.09	28.5	13	20.0		62	4
16.09	29.7	14	20.8		69	4
17.09	31.0	13	21.7		59	4
18.09	31.3	16	22.5		52	4
19.09	31.7	15	22.8		50	9
20.09	27.3	16	21.9		57	6
<i>Jami II</i>						
<i>Urtach</i>	31.7	13	22.0	0.0	56	6
21.09	26.3	17	21.4	0.0	56	6
22.09	26.7	14	20.4		61	4
23.09	27.4	14	20.9		55	11
24.09	25.8	10	18.6	0.0	57	4
25.09	27.0	10	18.7		58	5
26.09	27.2	11	19.0		64	4
27.09	26.6	11	18.8	0.0	60	9
28.09	27.5	11	18.9		63	4
29.09	28.5	11	19.5		57	4
30.09	27.9	14	19.8		57	4
<i>Jami</i>						
<i>Urtach</i>	28.5	10	19.6	0.0	59	6

Ushbu kunlari havoning o'rtacha namligi 56,0% ni, shamol tezligi 6,0 m/sek ni tashkil etdi.

Chigit 5-mayda ekilib Sojean pereparati bilan kimyoviy chilpish o'tkazilgan fonimizda defoliatsiya muddati boshqa chigit ekilishi biroz kechki bo'lgan fonlarga nisbatan ertaroq yetildi va bu 9-sentyabrga to'g'ri kelib, eng yuqori havo harorati 31,6°C ni, eng past 14,3°C ni, o'rtachasi 22,9°C ni tashkil etdi. Havoning o'rtacha namligi 51% ni, shamol tezligi esa 4,0 m/sek ga teng bo'ldi.

Defoliatsiyadan so'ng 12-kuni yog'ingarchilik kuzatilmadi va o'ying ikkinchi dekadasida o'rtacha eng yuqori havo harorati 31,7°C, eng past 13,2°C, va o'rtachasi 22,9°C ni tashkil etib, havoning o'rtacha namligi 56,0% ni, shamol tezligi 6,0 m/sek ni tashkil etdi.

Xulosa

Urug'larni muvaffaqiyatli ekish tuproq va iqlim sharoitlarini baholashga kompleks yondashuvni talab qiladi. Tuproq va iqlim xususiyatlarini tushunish agronomlar va bog'bonlarga eng mos o'simlik navlarini va optimal ekish kunlarini tanlashga yordam beradi, bu esa yuqori hosil olishga olib keladi. Sharoitlarni puxta tayyorlash va tahlil qilish xavflarni minimallashtiradi va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshiradi. Demak, izlanishlar olib borilganda chigit ekish va chilpish tadbirlaridan qat'iy nazar ob-havo qulay bo'ldi va bu esa defoliantlarning ta'sirida o'z aksini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdualimov Sh.X. G'oz va kuzgi bug'doyda o'sishni sozlovchi moddalarni qo'llashning samaradorligini baholash. Qishlok xo'jalik fanlari d-ri... Diss. - Toshkent, 2008. -200 b.
2. Abdualimov LLL, Xalmanov B.A. G'oz turli qalinlikda o'stirilganda chilpish usullarining paxta sifatiga tasiri// Paxtachilik. -Toshkent, 1996; №2.-B. 20-21.
3. Abduraxmanov N.N. Povisheniye uroжайnosti xlopchatnika sorta Termez -24 na osnove optimizatsii srokov i sposobov chekanki v usloviyax surxan-sherabadskogo oazisa: diss. K.s.x.n. - Tashkent.: O'zPITI. 1996. -15 b.
4. Abduraximov N, Jo'raqulov B. Kimyoviy chilpish samarasi // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 1997; №6 - 20 b.
5. Axmedov J., Xasanova F., Niyazaliyev B., Abdualimov LLL, Sindarov O. Mo'l paxta xosili. O'zbekiston kishloq xo'jaligi jurnali, 2009; №7-B. 1-2.
6. Boboyev T., Yuzboshyan O, Nazarov M., Xamrayev F. O'sish regulyatorlarining paxta hosildorligiga ta'siri// O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 1991; №3 -B. 7-8.
7. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari, O'zPITI-Toshkent, 2007.-B. 145.
8. Jo'rayev B. Kimyoviy chilpishning samarasi// O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2000; №3- B. 22-23.